

ABDUMALIK KUCHKINOV, SHOHSANAM MATUPAYEVA

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING HUQUQIY EKOLOGIK
KOMPETENSİYALARINI INTERFAOL USULLAR
ORQALI RIVOJLANTIRISH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDUMALIK KUCHKINOV, SHOHSANAM MATUPAYEVA

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING HUQUQIY EKOLOGIK
KOMPETENSİYALARINI INTERFAOL USULLAR
ORQALI RIVOJLANTIRISH**

Monografiya

Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2023

UO'K: 37.013
KBB: 74.262.01
K-99

Kuchinov A.Yu, Matupayeva Sh.Z.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining huquqiy ekologik kompetensiyalarini interfaol usullar orqali rivojlantirish.
[Matni: Monografiya / A.Yu. Kuchinov, Sh.Z. Matupayeva. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti. 2022. - 132 b.

Mazkur monografiya o'quvchilarga sharoit mutafakkirlari merosidan foydalanib boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining huquqiy ekologik savodxonligi va ekologik kompetensiyasini rivojlantirish yoritib berilgan. Muallif o'quvchilarni interfaol metod va usullar vositasida ekologik tarbiyalash texnologiyalari, tabiiy fanlar darslari, darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni ekologik tarbiyalash texnologiyalari tizimini ishlab chiqqan.

Monografiya talabalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, pedagogika mutaxassisligi magistrantlari hamda oliy ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar va mazkur yo'nalishda izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Mardonov Shukurullo - pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Sherinimat Avazov - pedagogika fanlari nomzodi, professor

Fariddun Ochilov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universitetining 2023-yil 14-martgi ilmiy texnik kengashida ma'qullangan (2-sonli bayonnomma) va nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9267-2-1

© A.Yu.Kuchinov, Sh.Z. Matupayeva, 2023.
© "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti, 2023.

SO'Z BOSHI

XVI asr demografiya, fan va texnika taraqqiyoti asri bo'ladi. Bu asrda inson texnika vositalari bilan tabiatga ta'sir etadi. Inson o'z munofaqlarini qondirish maqsadida tabiatdan ko'proq boylik (mavnaat) olishni o'ylaydi. Bu jarayonda inson tabiiy zaxiralarning miqdori, uni holatini oylamaydi. Ogibatda zaxira miqdori kamayib sivilizatsiyani davom etishi xavf ostida qoladi. Bu holni yuz bermasligi uchun tabiat bilan insoniyat orasidagi munosabatlarni ilobiy yo'nalishga qaratish zarur. Shu sababdan ham XXI asrda ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Inson tabiatning bir qismi bo'lishi bilan bir qatorda, o'zining hayot faoliyatida yangidan-yangi usullar bilan tabiatga ta'sir qilishni davom ettirmoqda. Bu esa ekotizim holatining o'zgarishiga, ayniqsa, tabiatdagi sifat va miqdor ko'rsatkichlari buzilishiga olib kelmoqda. Bunday faoliyat natijasida er sayyorasining holati: atmosfera havosi (iqlimi), tuproqlar, suvlar, o'simlik va hayvonot dunyosi o'zgarib, havo, suv va tuproqlarning ifloslanishi hamda ularni himoyalash zaruriyati vujudga keldi. Agar insoniyatning tabiatga salbiy ta'siri shunday davom etadigan bo'lsa, o'z navbatida, mahalliy, mintaqaviy va global darajada ekologik inqirozlar vujudga kelishi mumkin.

Orol dengizining qurishi va Orolbo'yi ekotizimlarining halokati bunga yorqin misol bo'lib, Orolning qurigan o'rnida zararli qumli-tuzli hududlar (Orol qum) paydo bo'lmogda. Bu jarayon nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar uchun ko'plab ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, Orolbo'yi aholisi orasida turli xavfli kasalliklarning ko'payishi, chorva mollari va boshqa hayvon turlarining nobud bo'lishi, shuningdek erlarning qishloq xo'jaligi uchun yaroqsizligi va boshqa jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tabiat taraqqiyoti va insoniyat sivilizatsiyasining, shuningdek O'zbekiston tabiati va jamiyatining buguni va kelajagi ko'p jihatdan ekologik muammolarning hal etilishiga, barqaror rivojlanish dasturlari amalga oshirilishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020-y.) Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo'yicha boshlangan misli ko'rilmagan ishlarni davom ettirish, dengizning qurigan tubida o'rmonzorlarni kengaytirish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida "yashil belbog"lar barpo etish, sanoat rivojining ekologiyaga ta'sirining oldini olish bo'yicha 2025-yilgacha mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, nufuzli xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, Ekologiya kodeksi loyihasini ishlab chiqish lozimligini alohida ta'kidlagan edi¹. Sh. Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida ta'kidlaganlaridek, "Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa "Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni" sifatida joriy qilish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi".

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatlarda bo'lishga majburlirlar"², deb ko'rsatilganki, bu har bir fuqaroning tabiat oldidagi burchini hayot tarziga aylantirishi lozimligi anglatadi. Shu sababli mamlakatimizda oxirga yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish,

sonlariga va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida faol amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz tashabbusi bilan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari hujjatlarini profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sonlariga va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining iqlim o'zgarishi bo'yicha "Parij bitimini ratifikatsiya qilish, 2019 – 2028-yillarda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish va 2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyalari, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishish kabi ulkan inqirdalar yo'lida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi davlat boshqaruvi tizimi shakllantirildi, bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, strategik va dasturiy hujjatlar yongilandi³. Prezident Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida ta'kidlaganidek, "Biz Orol bo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani "Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni" sifatida joriy qilish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi"⁴. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-son qarori⁵, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrda

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ-491-son qonuni

2. "Xalq so'zi" gazetasi № 2022.09.20.2020 <http://xs.uz/uz/site/newspaper/?page=6>

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, "Xalq so'zi", 2020 yil 24 sentyabr, 202 (7704)-son.

4. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 2 oktyabrda iqlim o'zgarishi bo'yicha "Parij bitimini (Parij, 2015 yil 14 dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi O'RQ-491-son qonuni

5. "Xalq so'zi" gazetasi № 2022.09.20.2020 <http://xs.uz/uz/site/newspaper/?page=6>

6. Kompartsiyaviy yondashuv asosidagi Davlat ta'lim standartlari. -T.: 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori.

"Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son⁷, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son⁸, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmonlar⁹, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son qarori, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun¹⁰, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrda qabul qilingan "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmon¹¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmon¹² va shu kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Ayniqsa, ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustavor yo'nalishi bo'yicha Harakatlarni strategiyasida belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish, respublika hududidagi ekologik muammolar yechimiga ta'lim tizimini joriy qilish bilan hissa

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmon.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmon.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Xalq so'zi", 2020-yil 24-sentyabr, 202 (7704)-son.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2020-yil 29-oktyabrda qabul qilingan PF-6097-son farmon.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qabul qilingan PF-6108-son farmon.

qo'llash, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi¹³. Farmonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri bu o'quv jarayonining barcha sohalarini ko'klamzorlashtirish bo'lib, uni amalga oshirish uzluksiz ekologik ta'lim va ma'rifat sharoitida mumkin. Uzluksiz ekologik ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini maktab bo'lib, u erda tabiiy muhitga ijtimoiy va shaxsiy qadriyat sifatida og'ir, mas'uliyatli munosabada bo'lish asoslari yaratilishi kerak. Biroq, bu faqat o'qituvchilarning o'zlari to'g'ri tayyorlangan holda amalga oshirilishi mumkin. Har yili maktablarga yosh o'quvchilarning ishga kelishini inobatga olgan holda o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash butun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish omillaridan biridir.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, // Xalq so'zi, 2020-yil 19-iyun, № 19 (7521), 1-2-betlar.